

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI**

**NIZOMIY NOMIDAGI
TOSHKENT DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI**



KURS ISHI

Mavzu: O'quvchilarda intizomlilikni tarbiyalashning usul va metodlari

Bajardi: K. Rahimova

Qabul qildi: M. Rahmatullaeva

TOSHKENT 2014 yil

O'quvchilarda intizomlilikni tarbiyalashning usul va metodlari

Reja

Kirish

Asosiy qism

1. O'quvchilarning tarbiyalanganlik darajasini pedagogik tashxis qilish
2. Tarbiyada o'qituvchi bilan o'quvchilarning o'zaro munosabati.
3. O'quvchilarda intizomlilikni tarbiyalashning usul va metodlari

Xulosa

Adabiyotlar ro'yhati.

Kirish

Ijtimoiy-siyosiy mustaqillikka erishish O'zbekiston Respublikasi ijtimoiy taraqqiyotida yangi davrni boshlab berdi. Bu davrda, barcha sohalarda bo'lgani kabi ta'lim va tarbiya sohasida xam yosh avlodga jaxon andozalariga muvofiq ta'lim-tarbiya berish va uni milliy qadriyatlarimiz negizida amalga oshirishning ijtimoiy-xuquqiy asoslari ishlab chiqildi.

Prezidentimiz I.A.Karimov "Asosiy vazifamiz – Vatanimiz taraqqiyoti va xalqimiz farovonligini yanada yuksaltirishdir" mavzusidagi ma'ruzalarida: "Biz farzandlarimizning

nafaqat jismoniy va ma'naviy sog'lom o'sishi, balki ularning eng zamonaviy intellektual bilimlarga ega bo'lgan, uyg'un rivojlangan insonlar bo'lib, XXI asr talablariga to'liq javob beradigan barkamol avlod bo'lib voyaga etishi zarur barcha imkoniyat va sharoitlarni yaratishni o'z oldimizga maqsad qilib qo'yganimiz. Ana shunday buyuk vazifalar va ularni amalga oshirish uchun ajratilayotgan mablag'lar haqida gapirar ekanmiz, ertangi kunimiz uchun, bolalarimiz, farzandlarimizning baxti uchun mehnat qilish, fidoyilik ko'rsatish – bu barchamizning muqaddas burchimizdir, desam, o'ylaymanki, shu zalda o'tirgan insonlar, kerak bo'lsa, butun xalqimizning fikrini ifoda qilgan bo'laman”¹, - deb alohida ta'kidlab o'tadilar.

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining IX sessiyasi (1997 yil 29 avgust)da qabul qilingan hamda bugungi kunda amaliyotga keng qo'lamda tatbiq etilayotgan O'zbekiston Respublikasining “Ta'lim to'g'risida”gi Qonuni va “Kadrlar tayorlash milliy dasturi” buning yorqin guvohidir. Bugungi kunda ta'lim tizimida “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi”ni amaliyotga tatbiq etishning uchinchi yakuniy bosqichi davom etmoqda. Ta'lim islohotlarining zamonaviy bosqichi jamiyatda yuz berayotgan yangilanishlarning jadallash, ta'lim muassasalariga qo'yilayotgan yangi, yanada yuqori talablarga tezroq moslashish bilan bog'liq dolzarb vazifalarni ilgari surmoqda.

Bunday sharoitlarda ta'lim muassasasini rivojlantirish va zamon talablari darajasida faoliyat ko'rsatishini ta'minlashga qaratilgan tadbirlar salmog'i uzluksiz ortib boradi. Qo'yilayotgan vazifalarning deyarli barchasi tamoyil jihatidan yangi talablarni keltirib chiqaradi va ularni xal qilishda jamoaning faqatgina mavjud tajriba asosida ish ko'rishi etarli bo'lmay qoladi. Prezidentimiz Islom Abdug'anievich Karimov aytganlaridek, O'zbekistonda amalga oshirilayotgan barcha islohotlarning diqqat markazida shaxs turadi. Aynan shuning uchun ham milliy istiqlool g'oyasini amalga oshirishga qodir bo'lgan barkamol avlodni tarbiyalash, unga ta'lim berish davlatimiz oldidagi eng asosiy vazifalardan biri bo'lib qolaveradi².

Yurtboshimizning “Bugun oldimizda turgan o'ta muhim, ulkan vazifalardan yana biri – bizning o'rnimizga kelayotgan, o'z fikri, o'z dunyoqarashi, zamonaviy bilim va tafakkurga ega bo'lgan yangi avlod tarbiyasidir”³, degan fikrlari pedagog-o'qituvchilar oldiga Vatanimiz mustaqilligi yo'lida boshlangan islohotlarni davom ettirishga tayyor bo'lgan, o'z fikri va dunyoqarashiga, zamonaviy bilim va tafakkurga ega bo'lgan yangi avlodni tarbiyalashdek ulug' vazifa qo'yilganini yana bir bor tasdiqlaydi.

¹ Qarang: Karimov I.A. Asosiy vazifamiz – Vatanimiz taraqqiёti va xalqimiz farovonligini yanada yuksaltirishdir. Xalq sўzi. 2010 йил 30 январь, № 21.

² Qarang.: Karimov I.A. Barkamol avlod – Uzbekiston tarakkiyotining poydevori. // Barkamol avlod orzusi. –T.: Shark, 1997. – B.5-6.

³ Qarang: Karimov I.A. Vatan ravnaqi uchun har birimiz mas'ulmiz. T.9. – Toshkent “O'zbekiston”. - 2001. 102-bet.

“Barkamol avlod yili” davlat dasturida ta’kiblanganidek, “Mamlakatimizda sog‘lom va barkamol avlodni tarbiyalash, yoshlarning o‘z ijodiy va intellektual salohiyatini ro‘yobga chiqarishi, mamlakatimiz yigit-qizlarini XXI asr talablariga to‘liq javob beradigan har tomonlama rivojlangan shaxslar etib voyaga etkazish” da ta’lim muassasalarining ahamiyati katta⁴. Bunda ta’lim-tarbiya jarayonini zamonaviy pedagogik texnologiyalar bilan ta’minlash shu kunning eng dolzarb vazifalaridan biri bo‘lib xizmat qiladi.

Shu fikr mulohozalardan kelib chiqqan xolda kurs ishimizning mavzusi “O‘quvchilarda intizomlilikni tarbiyalashning usul va metodlari” deb nomlanadi.

Kurs ishining maqsadi: O‘quvchilarda intizomlilikni tarbiyalashning usul va metodlari pedagogik xususiyatlarni o‘rganish.

Kurs ishining o‘bekt: O‘quvchilarda intizomlilikni tarbiyalashning usul va metodlari o‘rganish jarayoni.

Kurs ishining predmeti: O‘quvchilarda intizomlilikni tarbiyalashning usul va metodlari mazmuni.

Kurs ishining vazifalari:

1. O‘quvchilarda intizomlilikni tarbiyalashning usul va metodlari mavzusiga oid ilmiy pedagogik adabiyotlarni taxlil etish.
2. O‘quvchilarda intizomlilikni tarbiyalashning usul va metodlari vazifasini pedagogik jihatdan taxlil etish.
3. O‘quvchilarda intizomlilikni tarbiyalashning usul va metodlari o‘rganish.

Kurs ishining tarkibi: Kirish, Asosiy qism, xulosa va adabiyotlar ro‘xatidan iborat.

⁴ Qarang: “Barkamol avlod yili” davlat dasturi. –T.:O‘zbekiston, 2006. – 8-bet.

Asosiy qism

1. O‘quvchilarning tarbiyalanganlik darajasini pedagogik tashxis qilish

Shaxsning tarbiyalanganlik darajasini aniqlash nihoyatda murakkab muammo bo‘lib, ushbu muammo pedagogika fanida hanuzgacha o‘zining to‘liq echimini topmagan. Tarbiyalanuvchi-yoshlarning tarbiyalanganligini “o‘lchash” maqsadida mezonlarni aniqlashga pedagogika fani endigina yaqinlashib kelmoqda. Hozirgi kunda shaxsning tarbiyalanganlik darajasini o‘rganish, olingan natijalarni aniqlash hamda tahlil qilishga qaratilgan izlanishlar aniq natijalar olishga hamda bu muammo yuzasidan uzil-kesil xulosa chiqarishga to‘liq imkon bermayapti.

Zamonaviy pedagogika fanida ta’lim va tarbiya jarayonini yaxlit tizim deb qaralib, bunda ushbu tizimning o‘zaro bog‘liq bo‘lgan elementlari sifatida maqsadlar (ta’limiy, tarbiyaviy, rivojlantiruvchi), mazmun, ish faoliyatining metod va shakllari, tarbiyachi va tarbiyalanuvchi bilan birga tarbiyaning shu kabi boshqa ob’ektlari ham kiradi.

Tarbiyaga innovatsion yondashuv tarbiyalanuvchilarga ta’lim berish va ularni tarbiyalash jarayonini texnologiyalashtirishni, ya’ni ta’limning har bir bosqichini qanday tashkil qilish, maqsad, olinadigan natijani – tarbiyalanuvchilarda shakllanadigan bilim, ko‘nikma va malakalarni oldindan rejalashtirish va maqsadga erishishni tushunishimiz mumkin.

Ta’lim jarayonida har bir o‘qituvchi-pedagogning faoliyatiga texnologik nuqtai nazardan qaraydigan bo‘lsak, bu xarakatlar algoritmini ajratib olishimiz mumkin bo‘ladi, ya’ni:

1. tarbiyalanuvchilarni o‘rganish va ularni tarbiyalash maqsadini aniqlash;
2. tarbiyalanuvchilarni tarbiyalashning maqsad va vazifalarini aniqlash;
3. tarbiyaviy tadbirlarni bosqichma-bosqich rejalashtirish.
4. rejalashtirilgan tadbirlarni amalga oshirish;
5. bajarilgan ish natijalarini tahlil qilish hamda baholash;
6. qo‘yilgan maqsadga erishilgan bo‘lsa, yangi vazifalarni belgilash hamda ularni amalga oshirishga kirishish.

Albatta ko‘pchilik pedagoglar aynan mana shu algoritm asosida faoliyat yuritadilar. Ammo o‘quv yili o‘rtasiga kelib “Tarbiyalanuvchilar bilan ta’lim-tarbiyaviy ishlarni endi qaysi yo‘nalishda olib borish kerak hamda bu ishda nimaga ko‘proq urg‘u berish zarur?” degan savol tug‘iladi. Bu vaqtda, asosan, darsdan tashqari tadbirlar, ekskursiyalar, kechalar uyushtirish haqida ko‘proq qayg‘urib, tarbiyalanuvchilarimiz qanday edilar-u, qanday bo‘ldilar, ularni

qanday bo‘lishlarini biz hohlar edik. Ba’zi o‘qituvchilarning fikriga ko‘ra, tarbiyalanuvchilarni deyarli har kuni ko‘rish, ular bilan muloqot qilishning o‘zi tarbiyachiga tarbiyalanuvchini yaxshi tarbiyalashi uchun zarur bo‘lgan ma’lumotlarni bermaydi⁵.

Ko‘p hollarda o‘qituvchilarga, tarbiyalanuvchilar bilan ularning munosabatlari yaxshidek tuyulib, hamma narsa metodika nuqtai nazardan to‘g‘ri amalga oshirayotganidek tuyuladi. Shu bilan birga tarbiya jarayonidagi kamchiliklar va nuqsonlar o‘qituvchilarning o‘z tarbiyalanuvchilarini etarli darajada yaxshi bilmaganliklari sababli sodir bo‘ladi.

Bunda “tarbiyalanuvchilarni tarbiyalanganligini bilish” deganda nimani tushunish kerak? Tarbiyalanuvchilarni tarbiyalanganligini bilish nima uchun zarur? Tarbiyalanuvchilarni tarbiyalanganligini bilish o‘qituvchiga va jamiyatga nima berishi mumkin?

Ushbu masalaga nazariy jihatdan yondashadigan bo‘lsak, “tashxis” deganda tibbiyotda avvallari “diagnoz” deb atalib, inson salomatligi holatiga nisbatan, unda mavjud bo‘lgan kasallik maxsus tadqiqot asosida beriladigan tibbiyot xulosasi tushunilar edi (S.I.Ojegov)

Hozirgi kunda “tashhis” (“diagnostika”) tushunchasi bizga ancha tanish bo‘lib qoldi. Biz bu so‘zni vrach ko‘rigiga borganimizda davolashdan oldin bo‘ladigan muolaja aynan tashxis ekanligini tushunamiz. Bundan tashqari, ishlab chiqarishda chilangarlar, avtoulavlarning ustalari ham mashina yoki mexanizmlarni ta’mirlashdan oldin tashhis ishlarini amalga oshiradilar.

Diagnostika so‘zi (yunon. «dia» - shaffof va «gnosis» - bilim) – o‘rganilayotgan ob’ekt yoki jarayonga oid kutilayotgan ma’lumotni oldindan olishning umumiy yo‘llari ma’nosini beradi⁶. Tashxis (diagnostika) deganda organizmning, mashinaning yoki har qanday murakkab tizimning ishlashini o‘rganishga aytiladi⁷. Noto‘g‘ri qo‘yilgan tashxis nafaqat mutaxassisning barcha harakatlarining bekor ketishiga sabab bo‘ladi, balki mavjud muammoni bartaraf qilish imkoniyatini yo‘qqa chiqarib, boshqa, yanada og‘irroq muammoni yuzaga keltirishi mumkin⁸.

Tarbiyalanuvchilarda ijobiy fazilatlarni shakllantirishni tashxis qilish hamda korreksiya qilish (tuzatish) jarayonlari quyidagi tartibda amalga oshirilishi mumkin:

- 1) yoshlarning tarbiyalanganligini, ya’ni ulardagi fazilatlarning shakllanganlik darajalarini tashxis metodlari yordamida aniqlash;

⁵ Qarang: Mavlonova R., To‘raeva O., Xoliqberdiev K. Pedagogika / Darslik. – Toshkent: O‘qituvchi, 2001. 173-174 betlar.

⁶ Qarang: Подласий И.П. Педагогика: в 3-х кн., кн.3: Теория и технология воспитания: учеб.для студ.вузов. –Москва: ВЛАДОС, 2007. 66-67-бетлар

⁷ Qarang: Ингенкамп К. Педагогическая диагностика / перевод с немецкого.- М., 1991, 7-бет.

⁸ Qarang: Щукина Г.И. Педагогические проблемы формирования познавательных интересов учащихся. – М., Педагогика, 1988. 84-бет.

- 2) ma'lum vaqt davomida tarbiyalanuvchilarda zarur fazilatlarining shakllanganlik dinamikasini o'rganish;
- 3) olingan tashxis natijalariga asosan tarbiyalanuvchilar uchun tarbiyaviy tadbirlarni samarali tashkil qilishga oid tavsiyalar tayyorlash;
- 4) tarbiyalanuvchilar bilan, pedagogik korreksiya shakl va metodlaridan foydalangan holda, tarbiyaviy tadbirlar rejasini tuzish va o'tkazish;
- 5) tarbiyaviy tadbirlar ta'sirida sodir bo'lgan o'zgarishlarni qayta tashxis qilish va fazilatlarining rivojlanish istiqbolini aniqlash;
- 6) yanada rivojlantirish maqsadida, iqtidorli tarbiyalanuvchilarni aniqlash;
- 7) doimiy ravishda tarbiyachi nazoratiga olinishi kerak bo'lgan, "xatarli guruh"ga kiruvchi tarbiyalanuvchilarni aniqlash.

Pedagogik tashxisning mazmuni – ta'lim-tarbiya jarayonining samaradorligini tarbiyalanuvchilarning ta'lim olganlik va tarbiyalanganlik darajalarining hamda o'qituvchilarning kasbiy mahorati darajalarini o'zgarishi asosida aniqlanadi. Pedagogik tashxisning mazmunini uning predmeti ham belgilaydi, ya'ni tarbiyaning maqsad va vazifalari asosida kimni tarbiyalash; uni qanday tarbiyaviy vaziyatlarda tarbiyalash; bunday vaziyatlarda kim nima qilishi va qanday vazifalarni bajarishi kerak; tarbiyachi qanday metod, vosita va usullar orqali tarbiyalanuvchilarga ta'sir qilishi kerak⁹.

Tarbiyalanuvchilarning tarbiyalanganligini tashxis qilish ta'lim va tarbiya jarayonida amalga oshiriladi. Ba'zi pedagog-o'qituvchilar o'z tarbiyalanuvchilarini o'rganishlari uchun hech qanday maxsus tadqiqotlarning keragi yo'q, deb hisoblaydilar. Biroq masalaga bunday yondashish o'qituvchilarga o'z tarbiyalanuvchilari to'g'risida faqatgina yuzaki ma'lumotlarga ega bo'lishlarini ta'minlashi mumkin.

Aksariyat hollarda tarbiyachilar o'z tarbiyalanuvchilariga ularda ilgari shakllanib qolgan fikrlar hamda sodir bo'lgan voqealar asosida baho beradilar, tavsiflaydilar. Ba'zi hollarda ularning ba'zilarini nohaq ravishda "tarbiyasi qiyin" tarbiyalanuvchilar qatoriga kiritib qo'yishlari ham mumkin.

Shaxs jamiyatda yashaydi va rivojlanadi. Shu bois tarbiyalanuvchining tarbiyalanganligini tashxis qilishda nafaqat tarbiyalanuvchining o'zini, balki uning yaqin ijtimoiy muhitini ham hisobga olish zarur bo'ladi.

Pedagogik tashxis ob'ekti – tarbiyalanuvchi shaxsi bo'lib, u umumiy va individual ko'rsatkichlarga (parametrlariga) ega.

⁹ Каранг: Щукина Г.И. Педагогические проблемы формирования познавательных интересов учащихся. – М., Педагогика, 1988. 96-бет.

Fazilatlari bir hil shakllangan odamlar mavjud emas, shu sababli tashxis qilishda shaxs ma'naviy dunyoqarashining butun murakkabligini hisobga olish zarur. Bola maktabga kelgan vaqtidayoq o'z individual xususiyatlariga ega bo'ladi, aks holda pedagogik tashxis o'z ma'no va mazmunini yo'qotgan bo'lar edi. Ammo, pedagogik tashxisda tarbiyalanuvchilarni bir-biridan farq qiluvchi aynan shu individuallik o'rganiladi, deb hisoblash ham noto'g'ri bo'ladi. Chunki har bir o'ziga hoslik bu inson psixikasidagi oddiy xususiyatlarning takrorlanmas kombinatsiyasidir.

“Har bir konkret tarbiyalanuvchida nimani tashxis qilish kerak?” degan savolga javob berish uchun barcha tarbiyalanuvchilarning ta'lim olganlik va tarbiyalanganlik mezonlarini aniqlab olish kerak. Ana shunday mezon sifatida barkamol shaxs modelini olish mumkin. Chunki bu modelga asosan inson ahloqiy, jismoniy, aqliy, mehnat va estetik tarbiyalanganlikning o'zaro uyg'un munosabati jarayonida shakllanadi.

Biroq tarbiya bu hamisha ham rivojlanish degani emas. Tarbiyaning turli tarkibiy qismlari – bu shakllanayotgan shaxsga nisbatan turli pedagogik ta'sir yo'llaridir. Ularning birgalikdagi ta'siri shaxsni barkamol inson bo'lib etishishini ta'minlaydimi, yoki yo'qmi – bu haqda aniq biror narsa deyish birmuncha mushkul, chunki bir xil aqliy, jismoniy, estetik, ahloqiy shakllangan insonlar mavjud emas.

Xar bir insonning qobiliyatlari turlicha bo'lib, kimdir mehnatsevarlik jihatidan tezroq rivojlansa, boshqa birov – axloqiy-estetik tomondan ulkan muvafaqqiyatlarga erishishi mumkin. Pedagogik tashxisning mohiyati – tarbiyalanuvchilardagi aynan mana shu iqtidorni aniqlab, ularni komil inson bo'lishlari uchun yordam berishdan iborat.

Ko'pchilik tashxis metodikalarida o'qitish sifati “pedagogik faoliyat samaradorligi mezonini” bilan belgilanadi. Bunda uning mazmuni, yo'nalganligi, tarbiyaviy ta'sirning sifati nazarda tutiladi.

I.P.Podlasyy¹⁰, L.M.Fridman va K.N.Volkovning¹¹ ta'kidlashicha, tarbiyalanuvchilarni bunday tashxis qilish etarlicha samara bermas ekan. Tadqiqotchilarning fikriga ko'ra, tarbiyalanuvchining tarbiyalanganligi pedagogik faoliyatning eng asosiy ko'rsatkichi bo'lib xizmat qiladi.

Demak, pedagogik tashxisning ob'ekti va asosiy yo'nalishini belgilab olgandan so'ng, pedagogik faoliyat sifatini baholash mezonini aniqlab olish zarur bo'ladi. Bunday mezon sifatida ta'lim muassasasida tarbiyalanuvchilar bilan olib borilayotgan ta'lim-tarbiyaviy

¹⁰ Каранг: Подласый И.П. Педагогика: в 3-х кн., кн.3: Теория и технология воспитания: учеб.для студ.вузов. –Москва: ВЛАДОС, 2007. 67-68-бетлар

¹¹ Каранг: Фридман Л.М., Волков К.Н. Психологическая наука – учителю. - М.: Просвещение, 1985. 12-бет.

ishlar, pedagogik faoliyat, uning qanday sharoitda olib borilayotgani, tarbiyalanuvchilarga qilinayotgan ta'sir uchun tanlangan eng samarali shakl va metodlar, texnologiyalar va asosiysi, bu ta'sirlar natijasida tarbiyalanuvchilarda bo'layotgan ijobiy o'zgarishlar hamda o'qituvchilarning pedagogik mahorati, tarbiyaviy tadbirlarning ta'lim tizimi bilan uzviyligi kabilarni belgilab olish mumkin.

Tarbiyalanuvchilarda ma'naviy-axloqiy fazilatlarni tashxis qilishning xozirgi kundagi xolatini aniqlash maqsadida, pedagogik kollej pedagog-o'qituvchilari tarkibi ichida sotsiologik so'rov o'tkazilganida biz uchun quyidagi savollar muhim ilmiy va amaliy ahamiyat kasb etdi.

1. Tarbiyalanuvchilarni tashxis qilish ta'lim muassasasida qat'iy reja asosida amalga oshiriladimi?
2. Pedagogika kolleji tarbiyalanuvchilarining tarbiyalanganlik darajasini tashxis qilishda qaysi metodlarni afzal ko'rasiz?
3. Tarbiyalanuvchilarni tashxis qilishda kollejning barcha o'qituvchilari zarur bilim, ko'nikma va malakaga egami?
4. Pedagogik me'yordan og'ishgan tarbiyalanuvchilarni tashxis qilish natijalari ular bilan tarbiyaviy ishlar tashkil qilishda qo'llaniladimi?
5. Tarbiyalanuvchilarini tashxis qilishda qaysi metodlar samarali, deb hisoblaysiz?
6. "Pedagogik tashxisga integral va majmuaviy (kompleks) yondashuv" deganda nimani tushunasiz?

Tadqiqotimizga pedagogik kollejning o'quv guruhlarini murabbiylari (2009 yil, 25 nafar) jalb qilinib, ularning 32 foizi tarbiyalanuvchilarni tashxis qilishda asosan o'quv-xujjatlarini o'rganish metodidan foydalanishlarini, 12 % - tarbiyalanuvchilar bilan individual suhbat yordamida, 18% respondentlar esa asosan didaktik testlardan foydalanishlarini ma'lum qildilar (1-jadval).

1-jadval

**Hozirgi kunda o'quvchilarni pedagogik tashxis qilishda
foydalaniladigan asosiy metodlar**

№	Metodlar	So'rov natijasi (% hisobida)
1.	O'quv-xujjatlarini o'rganish	32
2.	Tarbiyalanuvchilar faoliyatini kuzatish	12
3.	So'rovnomalar (anketalashtirish)	
3-a	Fan o'qituvchilari fikri	14

3-b	Tarbiyalanuvchilar ota-onalari fikri	8
3-v.	Tarbiyalanuvchilar fikri (sotsiometriya)	8
4.	Didaktik testlar	18
5.	Tarbiyalanuvchilar bilan individual suhbat	12
6.	Psixologik testlar	6

Respondentlarning faqatgina 6 foizi tashxis jarayonida psixologik testlardan foydalanishlarini, 12 foizi esa, tarbiyalanuvchilar faoliyatini ta'lim-tarbiya jarayonida kuzatishni ma'qul ko'rishlarini bildirdilar.

O'qituvchilarning 30 foizi tarbiyalanuvchilarni tashxis qilishda so'rovnomalardan foydalanishlarini va bunda ularning 14 foizi – fan o'qituvchilari fikri asosida, har biri sakkiz foizdan - ota-onalarning fikrini bilishga hamda tarbiyalanuvchilar orasida sotsiometrik tadqiqot olib borishini ta'kidlagan.

Tadqiqot natijasida olingan javoblarga asosan quyidagi hulosalarga keldik: hozirgi vaqtda ta'lim muassasalarida tarbiyalanuvchilarni tarbiyalanganlik darajasini tashxis qilish “qoniqarli” darajada olib borilmoqda. Yoshlarda insoniy fazilatlarining shakllanganlik darajasini tashxis qilish natijalaridan ulardagi mavjud kamchiliklarni tuzatish hamda yuksak ma'naviyatli shaxsni tarbiyalashda samarali foydalanish mumkin.

2. Tarbiyada o'qituvchi bilan o'quvchilarning o'zaro munosabati.

Pedagog bilan bola o'rtasida aloqalarning o'rnatilishi o'qituvchi bilan o'quvchilar o'rtasidagi o'zaro munosabatlar samaradorligining asosiy shartidir. Quyidagi shartlarga rioya qilgandagina bunday aloqaga erishish mumkin.

1. Bolani, uning his-tuyg'ulari, kechinmalari, xohish-istaklarini to'la qabul qilish. Bolalar muammolari yo'q. Bolalarning his-tuyg'ulari kechinmalar kuchiga ko'ra kattalarning his-tuyg'ularidan kam emas. Bundan tashqari, yosh xususiyatlariga tashqi ta'sirlarga beriluvchanligi, shaxsiy tajribaning kamligi, irodaning kuchsizligi, his-tuyg'ularning aql-idrok ustidan ustun kelishiga ko'ra bolaning kechinmalari alohida ta'sirchanlik kasb etadi va uning keyingi hayotiga katta ta'sir ko'rsatadi. Shuning uchun o'qituvchining bolani tushunishi va qabul qilishini ko'rsatishi juda muhimdir. Bu o'qituvchi bolaning xatti-harakati va ishlariga sherik (hamdard) bo'ladi degan emas. Qabul qilish - bolaning fikriga qo'shilish, unga rozi bo'lish emas.

2. Tanlash erkinligi. O'qituvchi turli yo'llar bilan muayyan kattaga erishishga harakat qilishi shart emas. Tarbiyada «Maqsad har qanday vositalarni oqlaydi» degan shior o'rinsizdir. O'qituvchi zinhor bolani majbur qilishi, biror narsani bo'yniga olishga ko'ndirishi kerak emas.

Har qanday tadqiq istisno qilinadi. Bola o'zining shaxsiy qarori (fikri)ga haqli ekanligini o'qituvchi yodda tutsa yomon bo'lmasdi, bu fikr o'qituvchi nuqtai-nazaridan noto'g'ri bo'lsa ham.

Pedagogning vazifasi - bolani o'qituvchi tavsiya etayotgan qarorni qabul qilishga majbur etish emas, balki to'g'ri qarorni tanlash uchun barcha sharoitlar yaratishdan iboratdir. Birinchi navbatda bola bilan aloqa o'rnatish haqida o'ylaydigan, uni tushinishni istaydigan, bola mustaqil qaror qabul qilishga haqli deb biladigan pedagog (faqat vaqtinchalik natijalar va tashqi xotirjamlik haqida qayg'uradigan o'qituvchiga qaraganda) muvaffaqiyatga erishish uchun katta imkoniyatlarga ega.

3. Bolaning ichki holatini tushunish o'qituvchidan bola tomonidan yuboriladigan noverbal axborotni o'qiy olish malakasini talab etadi. Bu erda pedagog bolada ko'rishni istaydigan va bu ko'proq bolaga emas, pedagogning o'ziga hos bo'lgan salbiy fazilatlarni bolada bor qilib ko'rsatish xavfi yashiringan bo'ladi. Kishining bunday xususiyati proeksiya deb ataladi. Proeksiyani engib o'tish uchun pedagog o'zida empatiya -boshqa kishining ichki dunyosini tushuna bilish kongruetilik - o'zi bilan o'zi bo'lish, xayrixoxlik va samimiylk kabi qobiliyatlarni rivojlantirishi kerak.

Mazkur shartlarga rioya qilmaslik pedagog bilan bolaning muomalasida psixologik to'siqlarning paydo bo'lishiga olib keladi (qarang: Obidatsya s rebenkom kak? - 1955). Bu to'siqlarning ta'sirini quyidagi misolda qarab chiqamiz.

Tasavvur qiling, tanaffusda yig'lab turgan etti yoshli Umida oldingizga kelib: «Dilnoza men bilan do'stlashishni istamayapti», -deydi.

Hamkasb, sizning birinchi so'zlaringiz nimalar bo'lishi mumkin? Ehtimol, shulardan kimdir: «Nima bo'ldi, nima uchun u do'stlashishni xohlamayapti?», - deb so'rashni, kimdir boshqa do'st topishni taklif etar, kimdir Umidani chalg'itishga urinib ko'rar. Mana shularning o'zi muomaladagi to'siqlardir. Chunki bu va boshqa xatti-harakatlar (biz ularni quyida ta'riflab o'tamiz) bolaning yig'isini to'xtatishga qaratilgan, ular haqiqatda bola pedagogdan kutayotgan narsaga mos emas.

To'siqlarning verbal (og'zaki) ifodasini tavsiya etamiz.

So'zlar bilan yupatish: «Tinchlan, yig'lama, hammasi yaxshi bo'ladi».

So'rab bilib olish: «Nima uchun Dildora sen bilan do'stlashishni xohlamayapti»? Nima bo'ldi? Urishib qoldilaringmi? Sen uni hafa qildingmi? va hokazo.

Maslahat: «Yig'lashni to'xtat, Dildoraning oldiga yana borda, sen bilan do'stlashishni istamasligi sababini bil, o'zingga boshqa do'st top» va hokazo.

Muammodan chetga qochish: «Kel, sen bilan hozir o'ynaymiz., ... yasaymiz va hokazo». (bolaning ko'z-yoshlarini pisand qilmaslik).

Buyruq: «Darhol yig‘lashni bas qil! Qani, uvvos solishni to‘xtat, eshityapsanmi, senga aytyapman?!».

Pand-nasihat: «Aql bilan o‘ylash kerak, arz qilish yaramaydi, yaxshi qizlar urishmaydilar, ular do‘stlashishni biladilar va o‘z qiyinchiliklarini o‘zlari hal etadilar, yaxshi qizlar hech mahal ...» va hokazo.

Gumon, taxmin: «Agar Dildora sen bilan do‘stlashishni xohlamayotgan bo‘lsa, o‘zing biror narsa qilgandirsan, balki sen uni hafa qilgansan?». Ayblash: «Agar u sen bilan do‘st bo‘lishni istamas ekan, o‘zing aybdorsan».

Bolaning his-to‘yularini rad etish: «Yig‘lama, hafa bo‘lma, bunday arzimagan narsaga iztirob chekish yaramaydi. Buni qarang-a, Dildora u bilan do‘st bo‘lishni xohlamas emish».

Tanqid; «Albatta, senga o‘xshagan yig‘loqi qiz bilan hech kim do‘st bo‘lmaydi».

Bunday vaziyatda nima qilish kerak?

Bu savolga javob berish uchun o‘zingizning eng yaqin kishingizdan qattiq iztirob chekkan va bu kechinmalarigiz bilan boshqa yaqin kishining oldiga borgan vaziyatingizni yodga keltiring. Nima uchun? Odatda o‘z kechinmalarini ishonib aytadigan kishidan nimalar kutishadi? Uni tushunishini-mi?

4. «Tinglash» (quloq solish) va «eshitish» nimani bildiradi? Eshitish qobiliyati fiziologik hodisa. Bunda tovushlar ixtiyorsiz ravishda idrok qilinadi. Tinglash — irodaviy hodisa bo‘lib, kishidan muayyan bir irodaviy kuch-g‘ayratni talab etadi.

Tinglash - aktiv jarayondir. Shu sababli muomala psixologiyasida «faol tinglash» degan tushuncha mavjud bo‘lib, u ikki turga reflektiv va noreflektiv tinglashga bo‘linadi.

Noreflektiv tinglash hikoya qiluvchi juda kuchli salbiy (hafagarchilik, g‘am-alam tajovuz va h.k) yoki ijobiy (muhabbat, quvonch, baxt va h.k) his-tuyg‘ularni boshidan kechirayotgan bo‘lib, tinglovchining uni tushunishiga ehtiyoj sezgan paytda qo‘llaniladi.

So‘zlovchini tushunadigan tanglovchidan quyidagilar talab etiladi.

6) o‘zining butun ko‘rinishi bilan so‘zlovchi uni diqqat bilan tinglayotganligi va tushunishga harakat qilayotganligini namoyish qilish;

7) luqma tashlash va o‘zi haqidagi hikoyalar bilan uning gapini bo‘lmaslik;

hech qanday baho bermaslik;

baho beriladigan fikrlarni so‘zlovchining his-tuyg‘ularini verbal va noverbal fikrlar, ya’ni so‘zlovchi his qilayotgan tuyg‘ularni imo-ishora va boshqa vositalar bilan berish, go‘yoki uning his-tuyg‘ularining ko‘zgusi rolini bajarish yoki «Ha, sen hozir juda ... bir oz ...(his qilayotgan tuyg‘ular darajasiga qarab) hafa bo‘lgansan, diling og‘rigan, mamnunsan, baxtlisan» va hokazo tipdagi fikrlar yordamida so‘zlovchining emotsional holatini berish;

10) agar maslahatlarga ehtiyoj sezmasa, maslahat bermaslik.

Refleksiv tinglash ishlab chiqarish masalalarini muhokama qilishda, munozarali vaziyatlarda zarur, chunki u nizolar, kishilarning bir-birini tushunmasligi oldini oladi. Bunday vaziyatda suhbat konteksti emas, balki suhbatdoshlarning nuqtai nazarini aniqlash, biror narsani birgalikda hal etish, biror narsa to'g'risida kelishib olish zarur bo'lganda suhbat mazmunining o'zi muhim ahamiyat kasb etadi.

Refleksiv tinglash o'zining «men jon-quloq tinglayman» degan iboraga yo'naltirilishi bilan noreflektiv tinglashdan farq qiladi. Ammo alohida usullar: oydinlashtirish, aniqlash — «... da ... uchrashamiz», «Siz nimani nazarda tutyapsiz?», «Men tushunmadim, yana bir marta tushuntiring», boshqacha ifodalash -«Boshqacha so'zlar bilan ... deb aytish mumkin», «Shunday qilib, Siz ... deb hisoblaysizmi? ... va hokazolar bilan ajralib turadi. Bu usullar suhbatdoshni idrok qilishda xatolarning va tushunmovchilikning oldini olishta qaratilgandir.

Fasl tinglash – pedagog bilan bolaning muomalasida to'siqlarni engib o'tishning asosiy yo'lidir. Sharq donishmandligida: «Xudo gapirish uchun bir a'zo, tinglash uchun ikki a'zo berganligi bejiz emas», - degan naql.

Sinfdan tashqari individual tarbiyaviy ishlarda rejalashtirilgan komponentlar bilan bir qatorda pedagogik vaziyatlar mavjud bo'lib, u pedagoglik kasbi mahorati darajasining indikatorini hisoblanadi.

Pedagogik vaziyatlarni hal etish algoritmi. Bola shaxsiga «odatdan tashqari» vaziyatlarda tarbiyaviy ta'sir ko'rsatish maqsadida biz pedagogik vaziyatni hal etish algoritmini tavsiya etamiz. Bu, bir tomondan, tarbiyaviy smaraga erishishga, ikkinchi tomondan, bola bilan kattalar o'rtasidagi muommolarda aloqalarni mustahkamlashga qaratilgan izchil xatti-harakatlar majmuidir. Muntazam ravishda algoritmnini qo'yish tarbiyaviy jarayonni maqsadga muvofiq, izchil va insoniy qiladi, pedagogik xatolarning oldini oladi va bolani yaxshiroq tushunishga yordam beradi.

Pedagogik vaziyatlarni hal etishda algoritmnini ishni endi boshlayotgan pedagoglarga tavsiya etiladi. Zero bunda ular kasbiy mahoratni yaxshiroq o'zlashtirib oladilar. Algoritmning qo'llanilishini quyidagi misolda qarab chiqamiz. Taxmin qilaylik. 11 sinfdan «Mening sevimli shahrim» mavzusida sinfdan tashqari mashg'ulot. Suhbat vaqtida pedagog Nodir degan bolaning chiroyli qalamtarosh bilan o'z nomini stolga o'yib yozayotganini sezib qoldi.

Birinchi bosqich, shartli ravishda «Stop!» deb ataladi, o'qituvchining vaziyatni baholashiga va shaxsiy kechinmalarini anglashga qaratilgan. Bu bosqich shoshmashosharlik bilan qilingan harakatlar tufayli bolaga ziyon etkazmaslik va u bilan bo'ladigan munosabatlarni murakkablashtirmaslik uchun zarurdir. Faqat vaziyat bolaning yoki tevarak-atrofdagi kishilarning sog'ligi va hayoti uchun xavf tug'dirayotgan holatlarda (masalan, bola

elektr razetkasiga biror narsani tiqishga urinayotganda) tez va qat'iy ish ko'rish lozim. Lekin bunday vaziyatlar onda-sonda uchraydi, shuning uchun boshqa holatlarda, to'xtalishdan foydalanib: «Men hozir nimani his qilyapmiz? Hozir men nimani istayman? Men nima qilyapman?» deb o'zidan so'rash, shundan keyingina ikkinchi bosqichga o'tish mumkin.

Ikkinchi bosqich pedagogning o'ziga-o'zi beradigan «Nima uchun» savolidan boshlanadi. Mazkur bosqichning mohiyati bolaning xatti-harakatlari sababini tahlil qilishdan iboratdir. Bu juda muhim bosqich, chunki aynan xatti-harakat sababi pedagogik ta'sir vositalarini belgilab beradi. Zero har bir sabab alohida yondoshuvni talab etadi.

Masalan, o'quvchi partani zerikayotgani uchun ham, pichoqni sinab ko'rmoqchi bo'lgani uchun ham, tevarak-atrofdagilarning uni e'tirof etishlarini istayotgani uchun ham kesishi mumkin. Lekin u o'zini qanday namoyon qilishni bilmaydi, u o'qituvchiga «qasddan» qilish uchun ham partani buzishi mumkin va hokazo.

Bolaning xatti-harakatlari sababini tug'ri aniqlash va «nima uchun?» degan savolga aniq javob berish uchun pedagog noverbal tushunish malakasiga ega bo'lishi kerak. Masalan, agar o'quvchi partani o'qituvchiga «qasddan» kesayotgan bo'lsa, u o'zining niyatlarini kishining g'ashini keltiradigan holatda namoyon qilgan bo'lar edi.

Agar o'quvchi partani zerikkanidan buzayotgan bo'lsa, unda diqqatnoma ko'rinish paydo bo'lar va u pichoq o'rniga, ehtimol, ruchka yoki qalamdan foydalanar va ma'nosiz naqshlar chizib o'tirar edi.

Bordi-yu u pichoqni sinab ko'rmoqchi bo'lganida buni hech kimga sezdirmay, parta ostida, namunali o'quvchi bo'lib ko'rinishga harakat qilib, qo'llarini berkitib bajarardi.

O'quvchining diqqat bilan o'tirishi (tirishib ishlaganidan tilini chiqarib olgan, o'quvchining yaqinlashganini sezmaydi) uning o'z xatti-harakatini namoyish etmasligini bildiradi. O'z nomini xafsala bilan yozib berish fakti esa, uning tevarak-atrofdagilar tomonidan e'tirof etilmayotgani va o'zini namoyon qila olmasligini ko'rsatyapti, deb taxmin qilishga imkon beradi. Tabiiyki, bu birdan-bir sabab bo'lishi mumkin emas, taxminimizcha, mazkur konure holatda sinfdagi o'zining ijtimoiy holatidan qanoatlanmaslik o'quvchi xatti-harakatining asosiy sababidir. «Nima uchun?» degan savolga umumiy tarzda javob berib, algoritmnining uchunchi bosqichiga kirishish mumkin.

Uchinchi bosqich pedagogik maqsadni boshlashdan iborat bulib, «Nima?» degan savol ko'rinishida ifodalanadi? «O'zimning pedagogik ta'sirim natijasida men nimani istayman?». Gap nojo'ya xatti-harakatga borib taqaladigan bo'lsa, har bir pedagog bolaning nomaqbul ishlarini to'xtatishini va boshqa hech qachon bunday ishlar qilmasligini xohlaydi. Lekin bu bola qo'rquv emas, balki o'ng'aysizlik, or-nomus hissini boshidan kechirayotgan bo'lsagina mumkin. Afsuski, odatdagi hollarda pedagog o'zining pedagogik ta'sirini bolaning qo'rquv

hissi asosiga kiradi. Bu esa ijobiy, lekin uzoq davom etmaydigan samara beradi, chunki bunday holatni saqlab turish uchun tobora ko‘proq qo‘rqituvchi tadbirlar talab etiladi.

Bunday holatdan qanday chiqish va bolada qo‘rquv emas, balki or-nomus hissini qanday uyg‘otish mumkin? Pedagogik ta’sir bolaning shaxsiga qarshi emas, balki uning xatti-harakatlariga qarshi yo‘naltirilgan bo‘lsa uyat, or-nomus rag‘bat vositasini o‘taydi. Agar bola o‘zining yaxshiligini bila turib, bu gal yaxshi ish qilmaganligini aniq anglaydigan bo‘lsa, unda or-nomus tuyg‘usi orqali boshqa hech mahal shunday qilmaslik istagi paydo bo‘ladi. Shu sababli o‘z oldingizga pedagogik maqsad qo‘yar ekansiz har bir konkret holatda o‘zingizni bolani qanday bo‘lsa shundayligacha tushunishingizni, biroq ayni vaqtda uning xatti-harakatlarini ma’qullamasligingizni, chunki ular shunday ajoyib, aqlli bolaga nomunosibligini ko‘rsatishingiz kerak. Buday yondashuv, bolani kamsitmay va majbur qilmay, unda rag‘batlantiruvchi ijobiy xulq-atrof tuyg‘ular uyg‘otishga qodir. To‘rtinchi bosqich oldiga qo‘yilgan pedagogik maqsadga erishish uchun ehtimol vositalar tanlashdan iborat bo‘lib, «Qanday? Qanday qilib?» savollariga javob beradi: «Istalgan natijaga qanday yo‘l bilan erishish mumkin?» Pedagogik ta’sirga erishish usullari hamda vositalarini o‘ylab ko‘rar ekan, o‘qituvchi bolaga tanlash erkinligini berishi kerak. Bola pedagog o‘ylaganidek ish ko‘rishi yoki, aksincha, boshqacha yo‘l tutishi mumkin. Pedagogning mahorati shunda namoyon bo‘ladiki, unda u bolaning kerak bo‘lganidek ish ko‘rishga majbur etmay, uning to‘g‘ri yo‘l tanlashi uchun zarur sharoitlar yaratishi lozim.

Mahoratli pedagog har qanday vaziyatdan chiqishning bir necha yo‘llari borligini biladi. Shuning uchun u bolaga bir necha variantlarni taklif etadi, ammo eng optimal variantni jozibali qilib ko‘rsatadi va bu bilan to‘g‘ri yo‘l tanlashiga yordam beradi.

Mohir pedagog qo‘rqitish, jazolash, mas’hara qilish, yomon xulqi xaqida kundaligiga yozib qo‘yish va ota-onalarga arz qilishdan saqlanishga harakat qilib, keng ko‘lamdagi pedagogik vositalardan foydalanadi. Chunki pedagogik ta’sirning yuqorida aytib o‘tilgan usullari unchalik samarali emas va kasbiy mahoratning etarli darajada emasligidan dalolat beradi. Pedagogik faoliyatining boshlanishidayoq shularga o‘xshash vositalardan voz kechish pedagogning ijodkorligi uchun keng imkoniyatlar beradi va bola bilan bo‘ladigan muomala jarayonini quvonchli va samarali bo‘lishiga imkon beradi.

Beshinchi bosqich - pedagogning amaliy ishlaridir. Mazkur bosqich vaziyatni hal etish yuzasidan olib borilgan avvalgi barcha ishlarning mantiqiy yakuni hisoblanadi, Zero, aynan shu bosqichda bolaning motivlariga muvofiq ravishda, muayyan vosita va usullar orqali pedagogik maqsad amalga oshiriladi.

O'qituvchining amaliy ishlaridagi muvaffaqiyat uning bola xatti-harakatining sabablarini qanchalik to'g'ri aniqlanganligiga, xatti-harakat sabablaridai kelib chiqib, aniq pedagogik maqsadni qanchalik to'g'ri ifodalaganligiga, oldiga qo'ygan maqsadiga erishishning optimal usullarini qanchalik to'g'ri tanlanganligiga hamda ularni real pedagogik jarayonda moxirlik bilan qanchalik joriy qila olganiga bog'liq.

Professional pedagog pedagogik ta'sirlar natijasi odatda, vaqtga bog'liqligini biladi, shuning uchun u boladagi yaxshi fazilatlarga tayangan holda ish ko'radi, (xatto bular ham yaxshi namoyon bo'lmasa ham).

Oltinchi bosqich pedagogik vaziyatlarni hal etish algoritmda oxirgi, yakuniy bosqich bo'lib, pedagogik ta'sirning tuzilishidan iborat bo'ladi va pedagogning bolalar bilan bo'ladigan muomalasi samaradorligini baholashga imkon beradi. Bu bosqichga mensimay qarash yaramaydi, chunki u oldiga qo'yilgan maqsadni erishilgan natijalar bilan taqqoslashga imkon beradi, Buning asosida pedagog ishining samaradorligini ob'ektiv baholash va yangi istiqbollarni ifodalash mumkin.

3. O'quvchilarda intizomlilikni tarbiyalashning usul va metodlari.

Sinf rahbari o'z o'quvchisini doimo o'rganib borishi uchun faqat o'quvchilar bilangina emas, balki o'qituvchilar bilan, o'quvchilarning ota-onalari bilan ham ish olib borishi kerak. Sinf xonasining jihozi va ko'rinishi o'quvchilarning estetik tarbiyasiga jiddiy ta'sir ko'rsatadi. Sinf rahbarining ko'rgazmali qurollardan samarali foydalanish, o'quvchilarni darsdan bo'sh vaqtlaridan foydalanish va bolalar ijodiy qobiliyatlarini o'stirishda ularni har tomonlama kamol toptirishga yordam beradi. Darsdan tashqari vaqtlarda o'quvchilarning jamoat toshiriqlarini bajarishini, to'garaklarda ishtirok etishini nazorat qilish kerak.

Bolalarni sevish, ularni hurmat qilish yaxshi xislatlarni yuzaga keltirishi mumkin. Agar o'qituvchi o'z o'quvchilariga nisbatan befarq, ayniqsa mensimasdan munosabatda bo'lsa, bunday o'qituvchini o'quvchilar hurmat qilmaydi va obro'si tushib boradi.

Sinfdan va maktabdan tashqari tarbiyaviy ishlarning samaradorligini oshirish avvalo komil insonni shakllantirishning eng zamonaviy va qulay yo'nalishlarini topib joriy etishga bog'liq. Tarbiyaviy ishlarni davr talabiga javob beradigan holda keltirish uchun tarbiyaning asosi bo'lgan barcha g'oyalar qaytadan ko'rib chiqilishi, asosiy e'tibor bola shaxsiga qaratilishi, yillar davomida to'plangan ijobiy tajribadan unumli foydalanish zarurligini taqozo etadi. O'zbekistonda yoshlarni barkamol insonlar qilib tarbiyalash, ular ongiga umuminsoniy va milliy-madaniy, ma'naviy, ahloqiy qadriyatlarni singdirishi talab etiladi.

O'quvchilarda intizomlilikni tarbiyalashda sinf rahbari o'z oldiga quyidagi maqsad va

vazifalarni qo'yadi:

- yosh avlodni ma'naviy-ahloqiy tarbiyalashda xalqning boy milliy, ma'naviy tarixiy an'analarga, urf-odatlarini hamda umumbashariy qadriyatlarga asoslangan samarali tashkiliy, pedagogik shakl va vositalarni ishlab chiqib amalga joriy etishidir;

- shaxsning aqliy, ahloqiy, erkin fikrlovchi va jismoniy rivojlanishi uning qobiliyatlarini har tomonlama ochish uchun imkoniyat yaratishi;

- yoshlarni erkin fikrlashga tayyorlash hayot mazmunini tushunib olishga ko'maklashish, o'z-o'zini idora va nazorat qila bilishini shakllantirish, o'z shaxsiy turmushiga maqsadli yondashuv, ularda reja va amal birligi 'issini uyg'otish;

- o'quvchilarni milliy, umuminsoniy qadriyatlar, vatanimizning boy ma'naviy merosi bilan tanishtirish, madaniy hamda dunyoviy bilimlarni egallashga bo'lgan talablarini shakllantirish, malaka hosil qildirish, tobora o'stirib-boyitib borish va estetik tushunchalarni shakllantirish;

- har bir o'quvchini bilimdonligini va ijodiy imkoniyatlarini aniqlab ularni rivojlantirish, inson faoliyatining turli sohalarda joriy qilib ko'rish. Bolalar ijodkorligi, iqtidorini yuzaga chiqarish va yanada qo'llab-quvvatlar uchun shart-sharoitlar yaratish;

- insonparvarlik odobi me'yorlarini shakllantirish, birg'birini tushunadigan, mehribonlik, shaftaqlilik, irqiy va milliy kamsitishlarga toqatsizlik, muomala odobi kabi tarbiya vositalari (nohaqlikka, yolg'onchilik, tuxmat, chaqimchilikka toqatsizlik) keng qo'llanilishi lozim;

- vatanparvarlik, dunyoviy fikrlash, jamiyatimizda yashayotgan odamlar bilan o'zaro munosabat – muloqotni o'rganish, o'z xalqiga, davlatiga, uning himoyasi uchun hamisha shay bo'lib turish, O'zbekiston Resublikasi va boshqa davlatlarning ramzlariga hurmat bilan qarash, yosh avlodni O'zbekiston Konstitutsiyasiga, bayrog'iga, gerbiga, madhiyasiga, prezidentiga sadoqatli qilib tarbiyalash;

- qonuniy jamoa ahloqi va turmush qoidalariga hurmat bilan qarashni tarbiyalash, shaxsning noyob qirralarini belgilovchi fuqarolik va ijtimoiy mas'uliyat hislarini rivojlantirish, o'zi yashayotgan mamlakatning ravnaqi, insoniyat taraqqiyotini barqaror saqlab qolish uchun fidoyilik, ekologik ta'lim-tarbiya berish;

- mustaqil respublikamiz O'zbekistonning ichki va tashqi siyosatiga to'g'ri va holisona baho berishga o'rgatish, uning tinchliksevarlik, demokratiya va boshqa davlatlarning ichki ishlariga aralashmaslik, ochiq-oshkora tashqi siyosatiga va o'z xalqining turmush darajasini oshirishga yo'naltirilgan, fuqarolarni ijtimoiy himoya qiladigan ichki siyosatni to'g'ri tushuntirmog'i kerak.

- turmushda eng oliy qadriyat hisoblangan mehnatga ijodiy yondashish fazilatlarini shakllantirish;

– sogʻlom turmush tarziga intilishni tarbiyalash va rivojlantirish, munosib oila sohibi boʻlish istagini shakllantirish;

– yoshlarimizni erkin mustaqil fikrlashga oʻrgatish;

– barkamol avlodga xos odoblilik sanʼati va madaniyatini oʻrgatish;

– oʻzbek xalqining milliy urf-odat, anʼana va qadriyatlarini amalda qoʻllash malakalarini shakllantirish;

– insoniyat tarixiy taraqqiyoti jarayonida madaniy, maʼnaviy, milliy merosdagi avlod-ajdodlarimizdan qolgan odob-ahloq haqidagi bilimlardan boxabar etish;

– marakaziy Osiyo mutafakkir va maʼrifatparvarlarning asarlaridagi xikmat, oʻgit va nasihatlarini oʻrgatib, ularga amal qilishni uqtirish;

– tabiatga toʻgʻri munosabatning mohiyatini, tabiatni muhofaza qilish insonning burchi ekanligini, ekologik nochorlikka olib keladigan sabablarni anglash va baholash boʻyicha bilimlar berish;

– ota-ona va vatan oldidagi burchni va unga sodiqlik nima ekanligini anglatish;

– oʻz-oʻzini anglash shart-sharoitlarini, inson qadri va xurligini anglash, uning tabiatini, milliy va umuminsoniy madaniyatini, ona tilishini saqlash, maʼnaviy taraqqiyotni bozor iqtisodiyoti bilan uzviy rivojlanishini tushuntirib berish;

– yuksak insoniy fazilatlar mohiyatini anglatish, ularga ongli munosabatda boʻlish, yaxshini-yomondan ajrata olish bilimiga ega boʻlishini tushuntirish;

– taʼlim-tarbiya jarayonida beriladigan bilimlar yaxlit va ijtimoiy shart-sharoitlar, milliy va tarixiy, maʼnaviy omillar, umuminsoniy qadriyatlar mohiyatini tushuntirish;

– oʻquvchilarni bilim olish bilan birgalikda yuksak insoniy komillik mohiyatini tushunib amal qilishga oʻrgatish;

– darslarda maʼnaviy, maʼrifiy, iqtisodiy, huquqiy, kasbiy tushunchalarning mohiyatini uzluksiz anglatib borishi muhimdir;

– odob-ahloqqa xos sifatlarni oʻquvchilarning kundalik ehtiyojiga aylantirish;

– oʻquvchilarda mehnat koʻnikmalarini, ijodiy mustaqil fikrlashni, kasb tanlashga va atrof olamga ongli munosabatni hosil qilish;

– ahloqiylikning oddiy hayotiy qoidalari boʻlishi kattalarga hurmat, kichiklarga izzat, oilada bir-birini eʼzozlash, mehmon kutish va boshqalarni kundalik turmushga singdirib borishi. Bolalarni tarbiyalashda (oʻquvchi) oʻqituvchi quyidagilarni hisobga olishi kerak;

– tarbiyaning oʻquvchilar ruhiyati va yosh xususiyatiga mosligini hisobga olish;

– oʻquvchilarning aqliy-maʼnaviy munosabatlari taʼsirini oʻrganish;

– oʻqituvchi-tarbiyachining savodxonlik darajasi, sanʼat va mahorati;

Oʻquvchilarda intizomlilikni tarbiyalashda darslarni ijodiy, noanʼanaviy, suhbat, oʻyin,

tabiatda, baxs-munozara, uchrashuv shaklida bo‘lishi maqsadga muvofiqdir.

Xulosa

Yurtboshimizning “Bugun oldimizda turgan o‘ta muhim, ulkan vazifalardan yana biri – bizning o‘rnimizga kelayotgan, o‘z fikri, o‘z dunyoqarashi, zamonaviy bilim va tafakkurga ega bo‘lgan yangi avlod tarbiyasidir”, degan fikrlari pedagog-o‘qituvchilar oldiga Vatanimiz mustaqilligi yo‘lida boshlangan islohotlarni davom ettirishga tayyor bo‘lgan, o‘z fikri va dunyoqarashiga, zamonaviy bilim va tafakkurga ega bo‘lgan yangi avlodni tarbiyalashdek ulug‘ vazifa qo‘yilganini yana bir bor tasdiqlaydi.

Sinfdan va maktabdan tashqari tarbiyaviy ishlarning samaradorligini oshirish avvalo komil insonni shakllantirishning eng zamonaviy va qulay yo‘nalishlarini topib joriy etishga bog‘liq. Tarbiyaviy ishlarni davr talabiga javob beradigan holda keltirish uchun tarbiyaning asosi bo‘lgan barcha g‘oyalar qaytadan ko‘rib chiqilishi, asosiy e‘tibor bola shaxsiga qaratilishi, yillar davomida to‘plangan ijobiy tajribadan unumli foydalanish zarurligini taqozo etadi. O‘zbekistonda yoshlarni barkamol insonlar qilib tarbiyalash, ular ongiga umuminsoniy va milliy-madaniy, ma‘naviy, ahloqiy qadriyatlarni singdirishi talab etiladi.

Tarbiyalanuvchilarda ijobiy fazilatlarni shakllantirishni tashxis qilish hamda korreksiya qilish (tuzatish) jarayonlari quyidagi tartibda amalga oshirilishi mumkin:

1. Yoshlarning tarbiyalanganligini, ya’ni ulardagi fazilatlarning shakllanganlik darajalarini tashxis metodlari yordamida aniqlash;

2. Ma'lum vaqt davomida tarbiyalanuvchilarda zarur fazilatlarning shakllanganlik dinamikasini o'rganish;
3. Olingan tashxis natijalariga asosan tarbiyalanuvchilar uchun tarbiyaviy tadbirlarni samarali tashkil qilishga oid tavsiyalar tayyorlash;
4. Tarbiyalanuvchilar bilan, pedagogik korreksiya shakl va metodlaridan foydalangan holda, tarbiyaviy tadbirlar rejasini tuzish va o'tkazish;
5. Tarbiyaviy tadbirlar ta'sirida sodir bo'lgan o'zgarishlarni qayta tashxis qilish va fazilatlarning rivojlanish istiqbolini aniqlash;
6. Yanada rivojlantirish maqsadida, iqtidorli tarbiyalanuvchilarni aniqlash;
7. Doimiy ravishda tarbiyachi nazoratiga olinishi kerak bo'lgan, "xatarli guruh"ga kiruvchi tarbiyalanuvchilarni aniqlash.

O'quvchilarda intizomlikni tarbiyalashda bugungi kunda axborot texnologiyalardidan foydalanish maqsadga muvofiqdir. Ya'ni o'quvchilarni mustaqil fikrlashga odatlantirish maqsadida kino, televidenie, ma'naviy o'yinlar, mushoiralar qo'llanilishi mumkin. Kishilik jamiyatining har bir sohasi u yoki ijtimoiy-siyosiy masalalarni hal qilishda insondan mahorat talab etishini xalq og'zaki ijodiyotida, yozma yodgorliklarida, afsona, doston, ertak, hissa, hikoyat, rivoyatlarda hamda hurfikirli, dono, ma'rifatparvar, mutafakkirlarimizning asarlarida atroflicha talqin etilgan. Shu asarlardan o'quvchilarni ma'naviy-ahloqiy jihatdan tarbiyalashda bu asarlardan keng foydalanish mumkin. Har bir tarbiyachining dunyoqarashi, tarbiyasi odoblighi, uning muomalasida namoyon bo'ladi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Karimov I.A. Barkamol avlod – O'zbekiston tarakkiyotining poydevori. –T.: Sharq, 1997.
2. Karimov I.A. Ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot – pirovard maqsadimiz. –T., O'zbekiston, 2000.
3. Karimov I.A. Vatan ravnaqi uchun har birimiz mas'ulmiz. T.9. – Toshkent “O'zbekiston”. - 2001.
4. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – engilmas kuch. –T.Ma'naviyat, 2008.
5. Karimov I.A. Jaxon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi: O'zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo'llari va choralari. –T., O'zbekiston, 2009.
6. O'zbekiston Respublikasining «Kadrlarni tayyorlash milliy dasturi». «O'zbekiston o'qituvchisi», 15 oktyabr, 1997 y.
7. “Barkamol avlod yili” davlat dasturi. –T.:O'zbekiston, 2010. – 80 b.
8. Бабанский Ю.К. Проблемы повышения эффективности педагогических исследований: (Дидактический аспект) –М.: Педагогика, 1982.
9. R.A.Mavlonova B.Normurodova “Tarbiyaviy ishlar metodikasi” O'quv qo'llanma.T.: Tib-kitob.2010 y
10. Кабанов М.М., Личко А.Е., Смирнов В.М. Методы психологической диагностики и коррекции в клинике. - Л., 1983.
11. Ковалев С.В. Введение в современное НЛП. –М.: Изд-во “Флинта”, 2002.
12. Клейберг Ю.А. Социальные нормы и отклонения. – М., 1997;
13. Musurmonova O. Ma'naviy qadriyatlar va yoshlar tarbiyasi. – T.: O'qituvchi, 1996;
14. Педагогика: Учебное пособие / Под ред. В. А. Сластенина, И. Ф. Исаева, А. И. Мищенко, Е. Н. Шиянова. – М.: Школа-Пресс, 1997.
15. Pedagogicheskaya diagnostika. (Kurs leksiy dlya magistrov pedagogiki nachalnogo obrazovaniya. Sost. R.Mavlyanova, N.Raxmonkulova). –T., 2002.
16. Po'latova R.M. Maxsus pedagogika – T.:Pedagogika, 2006.
17. Ishmuxamedov R., Abduqodirov A., Pardaev A. Ta'limda innovatsion texnologiyalar / ta'lim muassasalari pedagog-o'qituvchilari uchun amaliy qo'llanma. –Toshkent, 2008.
18. Hasanboev J., To'raqulov X., Haydarov M., Hasanboeva O., Usmonov N. Pedagogika fanidan izohli lug'at. T.: “Fan va texnologiya”, 2009.
19. Shodimetov Yu. Sog'lom turmush tarzi: ijtimoiy-gigienik va ekologik muammolar. – T.: Ibn Sino nomidagi nashriyot, 1990.